
30-yanvar O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tavallud topgan kun



Bugun O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti, davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov tavallud topgan kun. O'zbekiston Qahramoni (1994) Islom Abdug'aniyevich Karimov **1938-yil 30-yanvar kuni Samarqand shahrida** xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. **O'rta Osiyo politexnika instituti** (1960), **Toshkent xalq xo'jaligi institutini** (1967) tugatgan.

1991-yil 31-avgustda Islom Karimov tashabbuslari bilan tarixiy voqea yuz berdi — O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilindi. 1991-yil 29-dekabrda muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida Islom Abdug'aniyevich Karimov **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi**. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov **2016-yil 2-sentabrda vafot etdi**.

Bugun Islom Karimov xotirasini mustahkamlash maqsadida yurtboshimiz tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Samarqand shahrida Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etildi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov siymosini yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlovda g'olib deb topilgan haykallarni Toshkent shahrida, Samarqand shahrida va u kishi birinchi rahbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida o'rnatish, Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohida Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini tashkil etish va Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondini ham ushbu manzil bo'yicha joylashtirish, Samarqand shahrida Islom Karimov muzeyini tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi hamda ularning ijrosi ta'minlanmoqda.

Bundan tashqari, Islom Karimovning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli va badiiy filmlar yaratish, uning siymosi aks ettirilgan maxsus pochta markalarini chiqarish haqida ko'rsatmalar berildi. Hozirda mazkur ko'rsatmalarni amaldagi ifodasini ta'minlash maqsadida, madaniy-ma'rifiy markazlarga, ta'lim muassasalariga hamda Respublikamizning qator tuman va shaharlariga Islom Karimov nomi berilib mustaqilligimiz asoschisi, siyosat arbobi, birinchi Prezidentimiz xotirasi yanada mustahkamlanmoqda.